

XORAZM VILOYATIDA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING O‘ZGARISH DINAMIKASI TAHLILI

Mayliyeva Sadoqat Safayozovna

RANCH universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası v.b.dotsenti, PhD

ORCID: 0009-0000-0695-1702

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm viloyatida kambag‘allik darajasining o‘zgarish dinamikasi tahlil qilinadi. Unda iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy himoya dasturlari, ta‘lim darajasi, mehnat bozoridagi imkoniyatlar, qishloq xo‘jaligi, migratsiya, sog‘liqni saqlash xizmatlari, investitsiyalar va tabiiy resurslar kabi omillar kambag‘allik darajasiga ta‘sir qiluvchi asosiy faktorlar sifatida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy himoya, ta‘lim darajasi, mehnat bozoridagi imkoniyatlar, qishloq xo‘jaligi, migratsiya, sog‘liqni saqlash, investitsiyalar, tabiiy resurslar.

Аннотация

В данной статье будет проведен анализ динамики изменения уровня бедности в Хорезмской области. Аннотация: В данной статье будет проведен анализ динамики изменения уровня бедности в Хорезмской области. В нем в качестве основных факторов, влияющих на уровень бедности, рассматривались такие факторы, как экономический рост, программы социальной защиты, уровень образования, возможно.

Ключевые слова: бедность, экономический рост, социальная защита, уровень образования, возможности на рынке труда, сельское хозяйство, миграция, здравоохранение, инвестиции, природные ресурсы.

Abstract

This article analyzes the dynamics of change in poverty rates in the Khorezm region. Annotation: this article analyzes the dynamics of change in poverty rates in the Khorezm region. It treated factors such as economic growth, social protection programs, educational attainment, labor market opportunities, agriculture, migration.

Keywords: poverty, economic growth, social protection, level of education, opportunities in the labor market, Agriculture, migration, health, investments, Natural Resources.

KIRISH

Kambag‘allik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham jiddiy muammo hisoblanadi. O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi so‘nggi yillarda sezilarli darajada kamaygan bo‘lsa-da, ushbu masala hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda. Kambag‘allikning turli turlari, jumladan, umumiy, institutsional, mintaqaviy va sinfiy kambag‘allik ushbu tadqiqotda muhokama qilinadi. Umumiy kambag‘allik iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning past darajasini anglatadi, institutsional kambag‘allik esa resurslarning teng taqsimlanmasligi bilan bog‘liq. Mintaqaviy kambag‘allik og‘ir tabiiy sharoitlar va ijtimoiy rivojlanishning pastligi bilan izohlanadi, sinfiy

kambag'allik esa shaxsiy omillar, xususan, ta'lim darajasining pastligi va mehnat resurslari yetishmasligi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, kambag'allikni qisqartirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan strategiyalar, jumladan, ijtimoiy himoya dasturlari va iqtisodiy rivojlanish loyihalari ushbu maqolada ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud strategiyalarni baholash va kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda aholi daromadlaridan samarali foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslari bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-son "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish hamda samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori³, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi PF-223-son "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni⁴, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori⁵ hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda xususiy kambag'allikni qisqartirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining rolini oshirishda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5841063>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-son "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish hamda samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7131782>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi PF-223-son "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-7271094>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7327821>

ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya hamda deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatida kambag'allik darajasining o'zgarish dinamikasiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Bu omillarni biz quyidagi turlarga ajratdik. Bular:

- iqtisodiy o'sish;
- ijtimoiy himoya dasturlari;
- ta'lim darajasi;
- mehnat bozoridagi imkoniyatlar;
- qishloq xo'jaligi;
- migratsiya;
- sog'liqni saqlash xizmatlari;
- investitsiyalar;
- tabiiy resurslar.

Kambag'allikni qisqartirishda ishsizlikni kamaytirish muhim ahamiyatga ega, chunki ish o'rinlari yaratish orqali aholi bandligini ta'minlash insonlarning daromadlarini oshiradi. Ishga joylashgan shaxslar o'z daromadlarini ko'paytiradi. Buning natijasida aholi turmush darajasi oshadi va shu bilan birga kambag'allik darajasi ham qisqaradi. Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish uchun ijtimoiy himoya tizimlari, ya'ni "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" joriy etilgan. Ushbu tizimlar yordamida ehtiyojmand oilalarga moddiy yordam ko'rsatilmoqda, bu esa, albatta, kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda viloyatimizda ham bir qancha chora-tadbirlar qo'llanilmoqda, buning natijasida ishsizlik darajasining keskin pasayishini quyidagi 1-jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadvalda ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yilda Xorazm viloyatida iqtisodiy faol aholi soni 831,4 ming kishini tashkil etgan. Ushbu aholi tarkibida bandlar soni 776,5 ming kishi, ishsizlar esa 54,9 ming kishini tashkil qilgan. Ishsizlik darajasi 6,6 % ni tashkil etgan bo'lib, bu viloyatdagi iqtisodiy faollik darajasini ko'rsatadi. Xorazm viloyatida kambag'allik darajasi 2023-yil oxiriga kelib 14 % ga qisqargan.

Ma'lumki, kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda ishsizlik darajasi ham yuqori bo'lishi kuzatiladi. Bu holat iqtisodiy faollikning pastligi va ish o'rinlarining yetishmasligi bilan bog'liq. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirish va ishsizlikni pasaytirish uchun iqtisodiy rivojlanish muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyatimizda iqtisodiy faol aholi sonining oshishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishi, albatta, kambag'allik darajasining yanada qisqarishiga olib kelishi mumkin. Ishsizlik darajasining yuqoriligi bevosita kambag'allik darajasining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadvaldagi ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori o'rinda 7,1 % bilan Bog'ot va Yangibozor tumanlari turibdi. Undan keyingi o'rinlarda 7 % daraja bilan Gurlan va Yangiariq tumanlari qayd etilgan.

1-jadval.
Xorazm viloyati tumanlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni, ming kishi hisobida (2023-yil hisobida)¹


Iqtisodiy faol aholi Shahar va tumanlar	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	Ulardan:		Ishsizlik darajasi, foizda
		Iqtisodiyotda bandlar	Ishsizlar	
2023-yil				
Xorazm viloyati	831,4	776,5	54,9	6,6
Urganch sh.	90,1	84,9	5,2	5,8
Xiva sh.	38,9	36,3	2,6	6,6
Tumanlar				
Bog'ot	72,0	66,9	5,1	7,1
Gurlan	66,7	62	4,7	7,0
Qo'shko'pir	70,6	65,7	4,9	6,9
Urganch	85,1	79,6	5,5	6,4
Hazorasp	79,7	74,6	5,1	6,3
Tuproqqaal'a	26,6	24,9	1,7	6,4
Xonqa	81,5	76,4	5,1	6,3
Xiva	58,2	54,3	3,9	6,7
Shovot	74,7	69,7	5,0	6,6
Yangiariq	49,3	45,9	3,4	7,0
Yangibozor	38,0	35,3	2,7	7,1

Mazkur tumanlarda ishsizlik darajasining yuqoriligi, iqtisodiy faol aholi sonining kamligi kabi omillarning salbiy oqibatlari natijasida kambag'allik darajasi ham yuqori bo'lishi kuzatilmoqda. Chunki ish o'rinlari va iqtisodiy imkoniyatlar cheklangan. Ushbu tumanlarda ishsizlik darajasining yuqoriligi kambag'allik darajasining oshishiga bevosita ta'sir qilmoqda. Aksincha, Urganch shahrida ishsizlik darajasi 5,8% va Urganch tumanida 6,4% ni tashkil etib, mazkur hududlarda ishsizlik darajasining nisbatan past bo'lishi aholi orasida kambag'allik darajasining pasayishiga va turmush darajasining yaxshilanishiga zamin yaratmoqda. Iqtisodiy faol aholi soni Urganch shahrida 90,1 ming kishi, Urganch tumanida 85,1 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bandlik darajasi mos ravishda Urganch shahrida 84,9 ming kishi, Urganch tumanida 79,6 ming kishiga teng bo'lgan. Ushbu hududlarda sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi kambag'allik darajasini pasaytirishga xizmat qilmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish maqsadida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy himoya dasturlari, jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tizimlari orqali muhtoj oilalarga ko'rsatilayotgan yordamlarning ijobiy natijasi sifatida 2024-yilda O'zbekistonda kambag'allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga qisqardi, ya'ni kambag'allar soni 3,3 mln kishini tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 719 ming kishiga kamaydi. Ushbu natijalar Jahon banki bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlar asosida aniqlangan. Unga ko'ra, kambag'allik darajasining eng yuqori pasayishlari Buxoro viloyatida 11,8 foizdan 8,7 foizgacha, Samarqand viloyatida 10,5 foizdan 7,5 foizgacha, Namangan viloyatida 10,4 foizdan 7,6 foizgacha hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 13,6 foizdan 10,8 foizgacha qayd etilgan.

¹ www.xorazm.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2024-yilda aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, tomorqa va dehqonchilik uchun ajratilgan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatda kambag'allik darajasini pasaytirishga sezilarli hissa qo'shdi. Natijada 2024-yilda aholining real daromadlari 10,7 foizga o'sib, aholi jon boshiga oyiga o'rtacha 2,1 mln so'mni tashkil etdi (yil boshida – 1,7 mln so'm) (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston aholisining 2024-yildagi daromadlari tarkibi¹

Ushbu 1-rasmni tahlil qiladigan bo'lsak, 2024-yilda O'zbekiston aholisining umumiy daromadlarining 42,6 % ini ish haqidan olingan daromadlar (2023-yilda – 41,9 foiz), 22,9 % ini tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar (2023-yilda – 21,4 foiz), pensiya, ijtimoiy yordam va subsidiyalar 18,2 % ini (2023-yilda – 18,9 foiz), qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik 10,7 % ini (2023-yilda – 9,8 foiz), chet eldan o'tkazmalar 2 % ini (2023-yilda – 3,1 foiz) hamda boshqa daromadlar 3,6 % ini (2023-yilda – 4,9 foiz) tashkil qilgan. Ushbu daromad manbalarining o'sishi natijasida O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2024-yil oxiriga kelib 11 % dan 8,9 % ga qisqardi, bu esa 3,3 million insonning kambag'allikdan chiqqanini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2023-yilda 14,1 foizga tushgan bo'lib, bu 2022-yilga nisbatan 3 foizga qisqargan. Kambag'allik darajasi eng yuqori bo'lgan hududlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari hisoblanadi. Xorazm viloyatida 58 ming oila kambag'allik chegarasida yashamoqda, bu esa ijtimoiy

¹ Iqtisodiy taraqqiyot va islohatlar markazi hisoboti ma'lumotlari

muammolarni yanada kuchaytiradi. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlar natijasida yil yakunida 1 million aholi kambag'allikdan chiqarilgani kuzatilgan.

Yuqoridagi xulosalar bilan bir qatorda bir qator takliflarni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq:

1. Ijtimoiy himoya dasturlarini kuchaytirish: kambag'allikdan aziyat chekayotgan oilalarga yordam ko'rsatish uchun ijtimoiy himoya dasturlarini kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish zarur.

2. Ta'lim va malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish: aholining ta'lim darajasini oshirish va kasb-hunar ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

3. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash: kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun moliyaviy hamda maslahat xizmatlarini kengaytirish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini yaratish zarur.

4. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish: qishloq xo'jaligi sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va meliorativ tadbirlarni amalga oshirish orqali hosildorlikni oshirish lozim.

5. Iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish: investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur takliflar amalga oshirilsa, kambag'allik darajasini yanada qisqartirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-son "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish hamda samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7131782>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi PF-223-son "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-7271094>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7327821>

6. Djumanova R.F "Aholi turmush darajasi: ko'rsatkichlari va uni oshirish yo'llari" //Iqtisod fanlari nomzodi olish uchun diss. avtoreferati. –T. 2008 – 11.

7. O. Jumayev "Kambag'allik tushunchasini tushunishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati"//“Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida

rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari”jurnali, May, 2024-y, 15.

8. Sh.Salimov “Kambag`allik va uni O‘zbekistonda baholashga yondashuvlar”,// T.: 2021, respublika ilmiy-amaliy konfrensiya ma’lumotlari, 35-39.

9. Husanova H.T “O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish tendensiyalari” //Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 2020-y, 15-21.

10. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

11. www.uza.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.

12. www.ceep.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi xuzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.

13. <https://lex.uz> ma’lumotlari.

14. www.Xorazmstat.uz ma’lumotlari.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**